e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/g3chp966

IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT VA QORAQALPOQ YOSHLARINING MILLIY MENTALITETI

Jiengaliy Usenov

Nukus davlat pedagogika instituti, dotsent, falsafa doktori (PhD).
e-mail: usenov@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0009-0009-9048-9295

Annotatsiya.

Maqolada ijtimoiy-ma'naviy muhitning qoraqalpoq yoshlari milliy mentalitetining shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash, globallashuv jarayonlari hamda axborot-mafkuraviy tahdidlarning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati, ta'lim sohasidagi islohotlar, raqamli texnologiyalar va innovatsion loyihalarning qoraqalpoq yoshlari rivojlanishidagi o'rni ochib beriladi. Yoshlarning ma'naviy kamoloti, milliy o'zligini anglashi va intellektual salohiyatini yuksaltirishda ijtimoiy-ma'naviy muhitning ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-ma'naviy muhit, qoraqalpoq yoshlari, milliy mentalitet, milliy qadriyatlar, milliy o'zlik, globallashuv, yoshlar siyosati, ta'lim-tarbiya, raqamli texnologiyalar.

СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНАЯ СРЕДА И НАЦИОНАЛЬНЫЙ МЕНТАЛИТЕТ КАРАКАЛПАКСКОЙ МОЛОДЁЖИ

Жиенгалий Усенов

Нукусский государственный педагогический институт, доцент, (PhD).

Аннотация.

В статье анализируется влияние социально-духовной среды на формирование национального менталитета каракалпакской молодёжи. Рассматривается воздействие национальных ценностей, национального самосознания, процессов глобализации и информационно-идеологических угроз на мировоззрение молодого поколения. Раскрывается роль государственной молодёжной политики Узбекистана, реформ в сфере образования, цифровых технологий и инновационных проектов в развитии каракалпакской молодёжи. Особое внимание уделяется значению социально-духовной среды в духовно-нравственном становлении молодёжи, формировании национального самосознания и повышении её интеллектуального потенциала.

Ключевые слова: социально-духовная среда, каракалпакская молодёжь, национальный менталитет, национальные ценности, национальное самосознание, глобализация, молодёжная политика, образование и воспитание, цифровые технологии.

THE SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT AND THE NATIONAL MENTALITY OF KARAKALPAK YOUTH

Jiengaliy Usenov

Nukus State Pedagogical Institute, Associate Professor, (PhD).

Abstract.

This article examines the influence of the socio-spiritual environment on the formation of the national mentality of Karakalpak youth. It explores the impact of national values, national identity, globalization processes, and informational and ideological threats on young people's worldviews. The study also highlights the role of Uzbekistan's state youth policy, educational reforms, digital technologies, and innovative projects in the development of Karakalpak youth. Particular attention is paid to the importance of the socio-spiritual environment in fostering young people's spiritual and moral development, strengthening national self-awareness, and enhancing their intellectual potential.

Keywords: socio-spiritual environment, Karakalpak youth, national mentality, national values, national identity, globalization, youth policy, education and upbringing, digital technologies.

Kirish. Har bir xalqning milliy mentaliteti uning tarixiy tajribasi, yashash tarzi, ma'naviy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari ta'sirida shakllanadi. Unda xalqning dunyoni idrok etishi, inson va jamiyat munosabatlariga yondashuvi, axloqiy qarashlari hamda hayotiy ideallari mujassamlashadi. Shu jihatdan, qoraqalpoq yoshlari milliy mentalitetini o'rganish xalqning madaniy merosi va zamonaviy ijtimoiy hayoti o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga xizmat qiladi. Yoshlar avlodlar davomchisi sifatida tarixan shakllangan qadriyatlarni o'zlashtiradi, ularni shaxsiy tajribasi va davr talablari asosida qayta talqin etadi hamda keyingi avlodlarga yetkazadi. Ushbu jarayonda milliy mentalitetning barqaror jihatlari saqlanishi bilan birga, uning mazmuni yangi qarashlar va ijtimoiy tajribalar hisobiga boyib boradi.

ISSN 3060-5059 (Online)

Milliy mentalitetni muayyan xalqning barcha vakillariga bir xil darajada xos bo‘lgan, o‘zgarmas belgilar yig‘indisi sifatida tushunish yetarli emas. U tarixiy sharoit, ijtimoiy muhit, ta’lim, oilaviy tarbiya va shaxsning hayotiy tanlovlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Qoraqalpoq yoshlarining qadriyatlari va dunyoqarashida ham umumiy madaniy asoslar bilan bir qatorda, yashash hududi, ta’lim darajasi, kasbiy intilishlari va individual tajribasiga ko‘ra farqlar mavjud bo‘lishi mumkin. Binobarin, mazkur masalani tadqiq etishda milliy umumiylik va shaxsiy o‘ziga xoslikning o‘zaro nisbatini hisobga olish muhimdir.

Zamonaviy ilm-fanda yoshlar ko‘p qirrali tadqiqot obyekti sifatida o‘rganiladi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuvda ular jamiyatning ijtimoiy-demografik guruhi bo‘lishi bilan birga, madaniy tajribani o‘zlashtiruvchi va ijtimoiy yangilanishlarda ishtirok etuvchi faol subyekt sifatida talqin qilinadi. Yoshlik davrida insonning hayotiy pozitsiyasi, qadriyatlar tizimi, kasbiy maqsadlari va ijtimoiy mas’uliyatga munosabati shakllanadi. Shuning uchun yoshlar mentalitetini tahlil qilish ularning qanday fikrlashi bilan bir qatorda, o‘z oldiga qanday maqsadlar qo‘yishi, jamiyatdagi o‘rnini qanday anglashini ham o‘rganishni talab etadi.

Qoraqalpoq yoshlarining milliy o‘zligini anglashida ona tili, oilaviy tarbiya, tarixiy xotira, xalq og‘zaki ijodi va madaniy an’analar muhim tadqiqot yo‘nalishlaridir. Bu omillar orqali yosh avlod xalqning o‘tmishi, ma’naviy tajribasi va axloqiy mezonlari bilan tanishadi. Ayni paytda, meros bo‘lib kelayotgan qadriyatlarning yoshlar hayotidagi o‘rni ularning kundalik faoliyati, muloqoti va shaxsiy qarorlarida namoyon bo‘ladi. Shu sababli milliy mentalitetni faqat an’analar mazmuni orqali emas, balki yoshlarning ushbu an’analarga munosabati va ularni amaliy hayotga tatbiq etishi orqali ham o‘rganish lozim.

Axborot almashinuvi va madaniyatlararo muloqotning kengayishi yoshlarning o‘zligini anglash jarayoniga yangi mazmun olib kirmoqda. Turli dunyoqarashlar, turmush usullari va muvaffaqiyat haqidagi tasavvurlar bilan tanishish ularni o‘z qadriyatlari ustida fikr yuritishga undaydi. Bunday sharoitda milliy madaniyatga mansublik tuyg‘usi, boshqa madaniyatlarga ochiqlik va mustaqil fikrlash o‘rtasidagi munosabat alohida ahamiyat kasb etadi. Qoraqalpoq yoshlari mentalitetidagi o‘zgarishlarni tushunish uchun an’anaviy qarashlarning saqlanishi, yangicha talqin qilinishi hamda zamonaviy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashish shakllarini tahlil qilish zarur.

Mazkur masala o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini aktuallashtirish va o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. O‘z-o‘zini bilish yosh insonning qobiliyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini anglashini ifodalasa, o‘zini aktuallashtirish mavjud salohiyatini rivojlantirishga intilishida namoyon bo‘ladi. O‘zini ro‘yobga chiqarish esa ushbu salohiyatning ta’lim, mehnat, ijod va ijtimoiy faoliyatda amaliy ifoda topishini anglatadi. Milliy qadriyatlar bu jarayonlarda shaxsning hayotiy tanlovlariga ma’naviy yo‘nalish berishi, o‘z madaniyatiga daxldorlik hissi esa uning ijtimoiy mas’uliyatini mustahkamlashi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, qoraqalpoq yoshlari milliy mentalitetini tadqiq etish madaniy merosning yosh avlod dunyoqarashidagi o‘rnini, milliy o‘zlikni anglash va shaxsiy rivojlanish o‘rtasidagi aloqalarni yoritishga imkon beradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi qoraqalpoq yoshlari milliy mentalitetining shakllanish omillari va namoyon bo‘lish xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish, uning yoshlarning o‘zini anglashi hamda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini o‘rganish kompleks yondashuvni talab qiladigan murakkab ijtimoiy-falsafiy vazifadir. Ushbu mavzuni ko‘rib chiqishda milliy madaniyat va ijtimoiy-tarixiy muhit kontekstida mentalitetning shakllanishini tahlil qilish, zamonaviy qoraqalpoq yoshlari dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlari va uning ijtimoiy jarayonlarga ta’sirini aniqlash mumkin.

O‘rganishning asosiy yo‘nalishlari:

1. Milliy mentalitet tushunchasi.

Mentalitetni muayyan xalqqa xos bo‘lgan nisbatan barqaror psixologik xususiyatlar majmui sifatida aniqlash. U o‘z ichiga qadriyatlar, e’tiqodlar va xulq-atvor me’yorlari tizimini oladi.

2. Qoraqalpoq yoshlari mentalitetining o‘ziga xosligi.

Ijtimoiy-madaniy muhit, zamonaviy tendensiyalar va globallashuv jarayonlarining ta’sirini aks ettiruvchi yoshlar mentaliteti xususiyatlarini aniqlash.

3. Ijtimoiy-falsafiy masalalar.

Milliy mentalitetning ijtimoiy institutlar, siyosiy tizimlar va madaniy an’analarning shakllanishiga ta’sirini tahlil qilish. Milliy o‘zlik kontekstida individual va jamoaviy ongning o‘zaro aloqadorligini o‘rganish.

4. Metodologik yondashuvlar.

Sotsiologik, psixologik, tarixiy va falsafiy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan kompleks tadqiqot usullaridan foydalanish.

5. O‘rganish muammolari.

Mentalitetni o‘rganish bilan bog‘liq qiyinchiliklarni, baholashlarning subyektivligini, hodisaning o‘zgaruvchanligini va uning sabablarini aniqlashdagi murakkabliklarni o‘rganish.

6. O‘rganishning ahamiyati.

Yoshlarning milliy mentalitetini tushunish jamiyatning ijtimoiy va madaniy jihatdan samarali rivojlanishi, fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlikni shakllantirish uchun zarur.

7. Qoraqalpog‘iston bo‘yicha.

Qoraqalpoq yoshlarining milliy mentalitetini o‘rganishda qoraqalpoq madaniyati va tarixining o‘ziga xos xususiyatlari, O‘zbekiston muhiti va globallashuv jarayonlarining ta’sirini hisobga olish talab etiladi. An’anaviy qadriyatlar zamonaviy tendensiyalar bilan qanday bog‘lanayotgani, bu hududda yoshlar ongi qanday shakllanayotgani, ular oldida

ISSN 3060-5059 (Online)

qanday xavf-xatarlar va imkoniyatlar turganini o‘rganish zarur.

Biz ushbu maqolada O‘zbekistondagi hozirgi ijtimoiy-madaniy muhitda qoraqalpoq yoshlarining milliy mentaliteti qanday shakllanayotgani haqida so‘z yuritamiz.

Bunda ijtimoiy-madaniy muhit, zamonaviy tendensiyalar va globallashuv jarayonlari ta’sirida shakllangan va shakllanayotgan yoshlar mentaliteti xususiyatlarini aniqlash nazarda tutiladi.

Qoraqalpoq yoshlari milliy mentalitetining shakllanishida ijtimoiy-madaniy muhit muhim o‘rin tutadi. Shu bois jamiyat boshqaruvida muayyan ijtimoiy-madaniy muhitni yaxshilash masalasiga katta e’tibor qaratib kelinadi.

Inson muayyan ijtimoiy-madaniy muhitda kamol topadi. Jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit keng ma’noda kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarishdagi munosabatlari, ijtimoiy-ma’naviy ongni belgilovchi omillar majmuini (makromuhit) anglatadi. Tor ma’noda esa inson bevosita yashaydigan, mehnat qiladigan oila va jamoa, o‘quv yurti, ma’naviyat va madaniyat maskanlarini o‘z ichiga oladi (mikromuhit) [1.3–4]. Demak, bugungi kunda jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma’naviy muhit yaxshimi yoki yaxshi emasmi, degan savol tug‘iladi. Hozirgi kunda axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlar orqali aholining muayyan qatlami, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashini o‘zlariga ma’qul bo‘lgan yo‘nalishga o‘zgartirish, beadablik, birovning haqqiga xiyonat qilish, loqaydlik, beparvolik va mas’uliyatsizlik kabi illatlarni singdirishga urinish holatlari uchrab turibdi. Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy muhitiga yuqorida keltirilgan illatlar ta’sirida odamlar o‘rtasida nizolar kelib chiqish ehtimoli yuqori. Albatta, bu odamlarning bilimsizligidan kelib chiqadi. Shu bois ilm insonni kamolotga yetkazuvchi, uni xalos etuvchi buyuk ne’mat, deyiladi. Imom Buxoriyning o‘n ikki asr oldin “Dunyoda ilmdan boshqa umid yo‘q va bo‘lmaydi”, degan fikrlari bejiz aytilmagan [2.150]. Bugungi kunda dunyoda ilmsizlik va jaholat oqibatida yuzaga kelayotgan ekstremizm va terrorizm kabi balo-qazolar hammani tashvishga solayotgani ayni haqiqatdir. Buning oldini olish uchun esa aholini, ayniqsa, yoshlarni bilimli qilib tarbiyalash, ularning ma’naviyatini yuksaltirish va rivojlantirish jamiyatimiz hamda ziyolilarimiz oldida turgan kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa ekanligini his qilmoqdamiz. Ana shu yo‘nalishda O‘zbekistonda hozirgi vaqtda yoshlarning jamiyatda shaxs sifatida shakllanishi uchun olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar katta ahamiyatga ega.

TADQIQOT NATIJALARI

Mustaqillikdan so‘ng (1991-yildan keyin) O‘zbekistonda yoshlarga oid mustaqil davlat siyosati shakllandi. 2016-yilda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi tashkil etildi (2017-yil). Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bugungi kunda davlat tomonidan yoshlar uchun ta’lim, tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, texnologiya va innovatsiyalar sohalarida keng imkoniyatlar yaratilmoqda. “Yoshlar daftari”, “Yoshlar kuni”, “Yoshlar parlamenti”, “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar amaliyotga tatbiq etildi. O‘z navbatida, O‘zbekistondagi barcha o‘zgarishlarning asosi hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni paytda ta’lim, jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat budjeti xarajatlari umumiy qiymatining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etmoqda. Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko‘tara olmaydi, lekin qanchalik og‘ir bo‘lmasin, buning uchun zarur bo‘lgan mablag‘ va resurslar izlab topilmoqda. Prezidentimiz bu xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo‘yilgan eng samarali investitsiya deb hisoblab, ta’lim darajasi va sifati har qanday mamlakat kelajagini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta’kidlamoqda. Darhaqiqat, islohotlarning taqdiri va natijasi, birinchi navbatda, kadrlar saviyasiga, ularning davr va taraqqiyot talablariga nechog‘li javob bera olishiga bog‘liq. Shu maqsadda mamlakatda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashkil etildi, maktab ta’limi tizimi tubdan isloh qilinib, 11 yillik umumiy o‘rta ta’lim qayta joriy etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda yangi oliy ta’lim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlar tashkil etilmoqda. Oliy o‘quv yurtlariga qabul kvotalari sezilarli darajada kengaytirildi. Qoraqalpog‘iston yoshlari uchun har yili oliy o‘quv yurtlariga alohida kvotalar berilmoqda. Sirtqi va kechki oliy ta’lim shakllari tiklandi. So‘nggi ikki yil ichida 15 dan ortiq rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari filiallari ochildi. Muxtasar aytganda, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan tarzda izchil davom ettirilmoqda. Bu imkoniyatlar, o‘z navbatida, yoshlarning, shu jumladan, qoraqalpoq yoshlarining ham katta hayotga qadam qo‘yishiga asos bo‘lmoqda. Shunday sharoitlarga javoban so‘nggi vaqtlarda qoraqalpoq yoshlarining ilm-fanga bo‘lgan ishtiyoqi ortib, intilishlari kuchayib bormoqda.

Yoshlarni internetdagi zararli harakatlardan himoya qilish, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o‘rgatish masalalari bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalar asosida barcha hududlarda Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari tashkil etilmoqda. Bu maskanlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o‘qitiladi, axborot texnologiyalari sohasida biznes bo‘yicha innovatsion ko‘nikmalar shakllantiriladi, startap loyihalarga ko‘mak ko‘rsatiladi. Qoraqalpoq yoshlari ham IT, raqamli texnologiyalar va innovatsion g‘oyalarni rivojlantirishda o‘z o‘rniga ega. Misol uchun, qoraqalpoq tilini rivojlantirishga oid mediamahsulotlar, kompyuter va mobil dasturlar hamda boshqa elektron materiallarni tayyorlash ishlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha vazifalarni bajarish maqsadida bir guruh qoraqalpoq innovator yoshlari tomonidan “Booky” qoraqalpoq tilidagi audiokitoblar platformasi, “KARSOFT-IT-SOLUTIONS” MChJ tomonidan esa “Qoraqalpoq tilining izohli lug‘ati” to‘rt jildlik kitobining mobil ilovasi ishlab chiqildi. Ushbu platforma lotin va kirill yozuvlarida ishlab chiqildi. Izohli lug‘atning mobil ilovasi Play Marketga yuklandi va aholiga dasturiy jihatdan tayyor shaklda taqdim etilmoqda. Shuningdek, yosh dasturchilar tomonidan qoraqalpoq va o‘zbek tillarida yozilgan so‘zlarni orfografik tekshirish va to‘g‘rilash bo‘yicha “ORFO-QAREKEŃ” nomli loyiha ishlab chiqildi. Ushbu loyiha qoraqalpoq tilining hozirgi zamon talablariga mos rivojlanishiga hamda ish yuritish hujjatlarini xatosiz tayyorlash orqali ish sifatini oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

2025-yil 18-avgust kuni Toshkent shahridagi “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida yoshlarimiz tarixiy yutuqqa erishdi. Dunyo miqyosida e’tirof etilgan ushbu tadbirda 1946 nafar iqtidorli yosh muhandis bir vaqtning o‘zida 1946 ta kichik robotni yig‘ishga muvaffaq bo‘ldi. Bu ulkan natija yoshlarimizning beqiyos salohiyati, bunyodkorligi va yangilikka bo‘lgan intilishini

butun dunyoga namoyon etdi. Yoshlarning ushbu tarixiy g‘alabasi Ginnesning rekordlar kitobiga kiritildi. Faxrli jihati shundaki, ushbu muvaffaqiyatda qoraqalpog‘istonlik yoshlar ham faol ishtirok etib, o‘z iste’dod va mahoratini namoyish etdi. Xususan, 141 nafar qoraqalpog‘istonlik yosh ushbu xalqaro tadbirda ishtirok etib, umumiy g‘alabaga munosib hissa qo‘shdi. Yosh dasturchilar va innovatorlarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bunday ishlarga ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Xalqaro darajada ham yoshlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Hozirda yoshlar chet ellarda ta’lim olish imkoniyatidan foydalanmoqda va bu ko‘p jihatdan davlat dasturlari hamda bir qancha jamg‘armalar orqali amalga oshirilmoqda. “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali so‘nggi yetti yilda AQShning Garvard, Yel, Kolumbiya, Stenford kabi nufuzli universitetlarida o‘qish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Natijada hozirgi vaqtda chet elda o‘qiyotgan qoraqalpoq yoshlari soni 200 nafardan oshgan.

Demak, mevali daraxtning o‘sib-rivojlanishi unga berilgan parvarishga bog‘liq bo‘lganidek, yoshlarning shaxs sifatida kamol topishi, jamiyatga, katta hayotga qadam qo‘yishi, ularning ma’naviy dunyosi hamda milliy mentalitetining shakllanishida ijtimoiy-ma’naviy muhitning tutgan o‘rni alohidadir. Binobarin, har qanday ijtimoiy-ma’naviy muhitdagi muammolarga yoshlarimiz chuqur bilim va yuksak intellektual tafakkur bilangina munosib javob bera oladi.

Milliy mentalitetni faqat tarixdan meros qolgan urf-odatlar yig‘indisi sifatida tushunish yetarli emas. U ijtimoiy xotira, qadriyatlar iyerarxiyasi, o‘zaro munosabat me’yorlari va hayotiy qaror qabul qilish usullarini birlashtiradigan dinamik hodisadir. Yosh avlod ushbu merosni tayyor shaklda qabul qilmaydi: uni ta’lim, mehnat, raqamli kommunikatsiya va shaxsiy tajribasi orqali qayta talqin etadi. Shuning uchun mentalitetdagi davomiylik va yangilanish bir-biriga zid emas, balki yagona ijtimoiy jarayonning ikki tomonidir.

Ijtimoiy-ma’naviy muhitni tahlil qilishda uch darajani farqlash maqsadga muvofiq: makrodaraja — davlat siyosati, iqtisodiy va axborot makoni; mezodaraja — mahalla, ta’lim tashkiloti, madaniyat muassasasi va yoshlar birlashmalari; mikrodaraja — oila, tengdoshlar guruhi hamda shaxsiy muloqot. Mazkur darajalar o‘zaro ta’sirda bo‘lib, ularning biridagi ijobiy o‘zgarish boshqasida avtomatik natija bermaydi. Masalan, ta’lim imkoniyatlarining kengayishi o‘z-o‘zidan qadriyatlarga mas’uliyatli munosabatni kafolatlamaydi; bunda oilaviy tarbiya va mahalliy madaniy amaliyotlar ham muhim.

Qadriyatlar nazariyasi nuqtayi nazaridan milliy mentalitetda barqarorlik va moslashuvchanlik muvozanati zarur. Q. Nazarovning qadriyatlar haqidagi ilmiy qarashlari asosida milliy merosni shaxsning bugungi ehtiyojlari, huquqiy madaniyati va ijtimoiy mas’uliyati bilan bog‘liq holda tahlil qilish mumkin [3.56]. Bu yondashuv qoraqalpoq yoshlarini bir xil qarashga ega yaxlit guruh deb tasvirlashdan saqlaydi: ularning dunyoqarashi yashash joyi, ta’lim bosqichi, oilaviy tajriba va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatiga qarab farqlanadi.

Qoraqalpoq oilasida avlodlararo muloqot, kattalarga hurmat, qarindoshlik rishtalarini qadrlash va o‘zaro ko‘mak kabi tamoyillar yoshlarning ijtimoiylashuvida muhim madaniy resurs hisoblanadi. Biroq ushbu xususiyatlarni barcha oilalarga bir xilda xos deb umumlashtirish metodologik jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Tadqiqotda ularning qanday sharoitda, qaysi tarbiyaviy vositalar orqali namoyon bo‘lishini aniqlash muhim. Oiladagi qadriyatlar muloqoti yoshlarga an’anani faqat takrorlash emas, balki uning ijtimoiy mazmunini anglash imkonini beradi.

Mahalla yoshlarni jamoaviy faoliyatga jalb qilish, turli avlodlar o‘rtasida tajriba almashish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash uchun qulay muhit yaratadi. Mahallaning tarbiyaviy imkoniyatini faqat tadbirlar soni bilan o‘lchash cheklangan yondashuvdir. Bunda yoshlarning tashabbuskorligi, qaror qabul qilishdagi ishtiroki, ko‘ngillilik faoliyati va ijtimoiy muammolarga munosabati kabi sifat ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish lozim.

Ta’lim muassasasi milliy mentalitetning zamonaviy talqinini shakllantiradigan asosiy maydonlardan biridir. Dars jarayonida qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi, tarixiy xotira, adabiyot va madaniy meros namunalarini tanqidiy tahlil qilish, ularni fuqarolik mas’uliyati va umuminsoniy qadriyatlar bilan qiyoslash samarali bo‘lishi mumkin. A. Avloniy tarbiya haqidagi qarashlarida axloqiy kamolot va ilmning birligini ta’kidlaydi [4.9]. Bu g‘oya bugungi sharoitda bilim, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatning o‘zaro bog‘liqligini tushuntirishga xizmat qiladi.

Pedagogik hamkorlik amaliy jihatdan uch yo‘nalishda yo‘lga qo‘yilishi mumkin: ota-onalar bilan qadriyatlar bo‘yicha suhbatlar, mahalliy tarix va madaniyatga bag‘ishlangan o‘quv loyihalari, yoshlarning jamoat foydasiga qaratilgan tashabbuslari. Bunday ishlar natijasini baholashda davomat yoki tadbirlar miqdoridan tashqari, ishtirokchilarning mulohaza yuritish darajasi, hamkorlik ko‘nikmalari va ijtimoiy faolligidagi o‘zgarishlarni kuzatish zarur.

Qoraqalpoq xalqining og‘zaki ijodi, dostonchilik an’analari, baxshichilik san’ati, xalq amaliy san’ati va marosimlari avlodlar o‘rtasida madaniy xotirani uzatishning muhim vositalaridir. Masalan, “Qirq qiz” dostoni tarixiy-badiiy meros sifatida jasorat, birdamlik, sadoqat va mas’uliyat kabi mavzularni muhokama qilish uchun material beradi. Badiiy asarni bevosita tarixiy faktning o‘rniga qo‘ymasdan, undagi timsollar va qadriyatlar tizimini sharhlash ilmiy jihatdan to‘g‘riroq bo‘ladi.

Milliy o‘zlikni anglash tilga munosabat bilan uzviy bog‘liq. Ona tilidagi adabiyot, ilmiy-ommabop materiallar, lug‘atlar va raqamli kontentning ko‘payishi yoshlarning madaniy ishtirokini kengaytirishi mumkin. Bunda tilni saqlash boshqa tillarni o‘rganishga qarama-qarshi qo‘yilmasligi lozim. Aksincha, ko‘p tillilik sharoitida qoraqalpoq tilining zamonaviy kommunikatsiya va ilmiy faoliyatda qo‘llanish imkoniyatlarini rivojlantirish milliy identifikatsiyani boyitadi.

MUHOKAMA

Olingan nazariy natijalar shuni ko‘rsatadiki, madaniy meros bilan ishlashda folklor materiallarini yod olishning o‘zi kifoya qilmaydi. Talabalar va o‘quvchilar mahalliy urf-odatlarning kelib chiqishi, tarixiy o‘zgarishi va hozirgi ijtimoiy vazifasini mustaqil tadqiq etishi, keksa avlod vakillaridan og‘zaki tarix yozib olishi, olingan ma’lumotlarni manbalar bilan solishtirishi mumkin. Bunday faoliyat madaniy xotira bilan tadqiqotchilik ko‘nikmalarini birlashtiradi.

Globallashuv qoraqalpoq yoshlari uchun bir vaqtning o‘zida yangi imkoniyatlar va murakkab tanlovlar muhitini

ISSN 3060-5059 (Online)

yaratadi. Xalqaro ta'lim, kasbiy tarmoqlar, elektron kutubxonalar va masofaviy muloqot bilim olish ufqini kengaytiradi. Shu bilan birga, algoritmik tavsiyalar, tekshirilmagan axborot, stereotiplar va iste'molchilikka asoslangan tasavvurlar qadriyatlarga munosabatga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu jarayonni faqat salbiy yoki faqat ijobiy deb baholash biryoqlamalikdir.

Yoshlarning raqamli savodxonligini texnik qurilmadan foydalanish qobiliyatigagina tenglashtirmaslik kerak. U manbani tekshirish, axborotning muallifi va maqsadini aniqlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, onlayn muloqot odobiga rioya etish hamda turli qarashlarga tanqidiy munosabat bildirish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Ma'naviy tarbiya aynan shu amaliy ko'nikmalar bilan bog'langandagina real axborot muhitida samarali bo'ladi.

Maqolaning dastlabki qismida qayd etilgan qoraqalpoq tilidagi audiokitoblar, elektron lug'atlar va imlo tekshirish tashabbuslari madaniy merosni raqamli muhitga moslashtirishning istiqbolli yo'nalishini ko'rsatadi. Biroq bunday loyihalarning ta'siri foydalanuvchilar soni, kontent sifati, til me'yorlariga muvofiqligi va yoshlarning foydalanish tajribasi orqali alohida o'rganilishi lozim. Loyihaning mavjudligi uning ijtimoiy samaradorligi isbotlanganini anglatmaydi.

Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrashning samarali yo'li tashqi ta'sirlardan to'liq cheklanish emas, balki tanqidiy tafakkur, madaniyatlararo muloqot va mustaqil tanlov ko'nikmalarini rivojlantirishdir. I. Karimovning yuksak ma'naviyat va mafkuraviy immunitet haqidagi qarashlari mazkur muammoning mahalliy ilmiy-siyosiy talqinini tushunishda muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi [5.13].

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslaridan biri 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son Qonundir [6]. Unda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda qo'llab-quvvatlashga doir umumiy tamoyillar belgilangan. Mazkur huquqiy doirani qoraqalpoq yoshlarining milliy mentaliteti bilan bog'lashda davlat yaratgan imkoniyatlar va yoshlarning ulardan foydalanish amaliyotini farqlab o'rganish zarur.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini faqat rasmiy tadbirlardagi ishtiroki bilan o'lchash yetarli emas. Fuqarolik tashabbuslari, volontyorlik, mahalliy ekologik muammolarga befarq bo'lmaslik, o'quv va kasbiy rejalarning aniqligi, jamoat muloqotidagi mas'uliyat ham muhim ko'rsatkichlardir. Ayniqsa, Orolbo'yi hududining ekologik muammolari yoshlarning hududiy daxldorlik hissi va ijtimoiy mas'uliyatini tadqiq etishda alohida kontekst yaratadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga oid hujjatlar yoshlarga ta'lim, ijtimoiy faollik va inson kapitali nuqtayi nazaridan yondashishni kengaytirgan [7]. Biroq strategik maqsadlar bilan real natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni faqat mustaqil kuzatuv, rasmiy ochiq ma'lumotlar va qiyosiy tadqiqotlar asosida baholash mumkin. Shu sababli maqolada keltirilgan ayrim aniq sonli ko'rsatkichlar birlamchi manbalar bilan qayta tekshirilishi lozim.

Mavzuni chuqurroq o'rganish uchun tizimli, tarixiy-qiyosiy va aksiologik yondashuvlarni birlashtirish maqsadga muvofiq. Tizimli yondashuv oila, mahalla, ta'lim va media o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatadi; tarixiy-qiyosiy tahlil qadriyatlarning davomiyligi va yangilanishini aniqlaydi; aksiologik tahlil esa yoshlarning qadriyat tanlovi va ustuvorliklarini izohlashga yordam beradi. Mazkur maqolada bu yondashuvlar nazariy tahlil vositasi sifatida qo'llanadi; alohida sotsiologik so'rov o'tkazilgani da'vo qilinmaydi.

Kelgusidagi empirik tadqiqotda Nukus shahri va Qoraqalpog'istonning turli tumanlarida yashovchi yoshlarning fikrlarini qiyoslash, shahar-qishloq, yosh va ta'lim bosqichi bo'yicha farqlarni hisobga olish zarur. So'rovnoma savollarida milliy tilga munosabat, oilaviy qadriyatlar, raqamli axborotdan foydalanish, mahalla faoliyatidagi ishtirok va kasbiy intilishlar kabi yo'nalishlar ajratilishi mumkin. Suhbatlar va fokus-guruhlar esa sonli natijalar ortidagi sabablarni tushuntirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda milliy mentalitetni tayyor stereotiplar orqali baholash xavfi mavjud. Masalan, "barcha yoshlar an'anaparast" yoki "raqamli muhit milliylikni susaytiradi" kabi hukmlar tekshiruvsiz qabul qilinmasligi kerak. Ma'lumotlarni yig'ishda ishtirokchilarning roziligi, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va savollarning betarafligi ta'minlanishi zarur. Bunday metodologik ehtiyotkorlik xulosalarning ishonchliligini oshiradi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini baholash uchun boshlang'ich va yakuniy kuzatuvlarni qiyoslash, reflektiv esselar, loyiha portfellari va ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini birgalikda tahlil qilish tavsiya etiladi. Bu yondashuv tarbiyaviy ta'sirni shunchaki deklarativ shiorlar bilan emas, balki o'lchanadigan xulqiy va kommunikativ o'zgarishlar bilan bog'laydi.

XULOSA

Umuman, qoraqalpoq yoshlarining milliy mentaliteti tarixiy-madaniy meros, oilaviy tarbiya, mahalliy ijtimoiy institutlar, davlatning yoshlarga oid siyosati va global raqamli muhitning o'zaro ta'siri sharoitida shakllanadi. Ushbu omillardan birortasini yakka holda hal qiluvchi deb ko'rsatish ilmiy jihatdan asosli emas. Mentalitetni o'zgarmas xususiyat emas, balki qadriyatlar davomiyligi va ijtimoiy yangilanishni birlashtiruvchi jarayon sifatida talqin etish muhim.

Amaliy jihatdan ta'lim muassasalarida qoraqalpoq madaniy merosiga oid tadqiqot loyihalarini kuchaytirish, mahalla va oila bilan muntazam hamkorlikni yo'lga qo'yish, qoraqalpoq tilidagi sifatli raqamli ta'lim resurslarini qo'llab-quvvatlash hamda yoshlarning ekologik va fuqarolik tashabbuslariga sharoit yaratish tavsiya etiladi. Ushbu choralarning natijadorligi mustaqil monitoring va yoshlarning o'z fikrlari asosida baholanishi lozim.

Maqolaning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, unda ijtimoiy-ma'naviy muhit yoshlar mentalitetiga ta'sir etuvchi bir nechta o'zaro bog'liq darajalar kesimida tushuntirildi. Keyingi izlanishlarda bu nazariy modelni empirik ma'lumotlar bilan sinash, hududlar va avlodlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kaxarova M., Suvonov I. Ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarga oid 111 savolga 111 javob. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022. – B. 3–4.

ISSN 3060-5059 (Online)

2. Imom Buxoriy. Al-Jome' as-sahih. – III jild. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1995. – B. 150.
3. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2004. – B. 56.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B. 9.
5. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 13.
6. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-406-son «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni. – 4–6-moddalar // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. – 70-maqsad: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/.